

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

HAMRAYEVA SEVARAXON BAHROM QIZI

**MURAKKAB TUZILISHLI FUNKSIONAL TO‘QIMALARNI OLİSH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.06.02 – To’qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Hamrayeva Sevaraxon Bahrom qizi

Murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni olish texnologiyasini ishlab chiqish..3

Хамраева Севарахон Баҳром қизи

Разработка технологии получения функциональных тканей сложных структур
.....23

Khamrayeva Sevarakhan Bahrom kizi

Development of technology for obtaining functional tissues of complex
structures43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works47

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

HAMRAYEVA SEVARAXON BAHROM QIZI

**MURAKKAB TUZILISHLI FUNKSIONAL TO‘QIMALARNI OLİSH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4922 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o’zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximhodjayev Saidvoris Saidgazievich,
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nigmatova Fatima Ucmanovna
texnika fanlari doktori, professor

Daminov Asror Mahmayusupovich
PhD, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025yil 7 may kuni____ soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o’tadi. (Manzil:100100, Toshkent, Shojahon ko’chasi, 5. Tel: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17;e-mail:pochta@ttesi.uz,Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti ma’muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin. (234-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:100100, Yakkasaroy tumani, Shojahon ko’chasi, 5. Tel: (+9987) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferat 2025 yil 21 aprel kuni tarqatildi. (2025 yil 21 apreldagi 234 raqamli reyestr bayonnomasi).

X.H.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, t.f.d.,professor

SH.SH.Xakimov Ilmiy

darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda yangi texnologiyalarni va maxsus funktsiyalarga ega to‘qimachilik mahsulotlarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyo miyosida Green Textiles kabi loyihalarni, xususan ekologik toza to‘qimalarni ishlab chiqarish”¹ va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Xalqaro to‘qimachilik bozori, jumladan, innovatsion va ekologik to‘qimalarga bo‘lgan ehtiyoji 2024-2030 yillarda 4 — 6% ortishi, Yaponiya, Germaniya, AQSh va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda to‘qimachilik innovatsiyalariga katta e’tibor qaratilib, global to‘qimalar hajmining 2024-2030 yillarda 20-25% o‘sishi kutilmoqda. Shu jihatdan funktsional to‘qimachilik buyumlarini ishlab chiqarish, inson faoliyatini qulayligi va xavfsizligini ta’minlash, atrof-muhitga minimal zarar yetkazadigan mahsulotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda maxsus funktsional to‘qimalarni ishlab chiqish uchun resurstejamkor texnologiyalar va zamonaviy to‘qimachilik jihozlarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada jumladan, murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, ilmiy markazlar va universitetlar tekstil sohasidagi texnologiyalarni "Smart to‘qimalar", gibridd matolar, va bioaktiv to‘qimalarni ishlab chiqish bilan birga resurstejamkor texnologiyalarni yaratish, yangi texnologik jarayonlar parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish masalalari davlat iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, mamlakat bu sohada o‘zining boy xom ashyo bazasi, ya’ni paxta xom ashysiga ega bo‘lib, bu resursdan samarali foydalanish uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, sifatli xaridorgir to‘qimachilik mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport hajmini kengaytirish yuzasidan eng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida jumladan, “....to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish bilan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravariga oshirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish....” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun mahalliy tabiiy aralash xom ashyonini qayta ishslash hajmini 200 ming tonnaga oshirish, iste’molchining kundalik ehtiyojlari, shuningdek, tibbiy, texnik va harbiy sohalardagi funktsional talablarga mos keladigan to‘qimalarni ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydag‘i PF-71-soni “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-soni «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan

¹2024-yil 1-maydag‘i PF-71-soni “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy ish respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darjasи. Funksional to'qimachilik materiallari sohasida ko'plab innovatsion ishlanmalar mavjud bo'lib, funksional xususiyatli tibbiy to'qimalarni ishlab chiqarish uchun bakteritsid, antimikorb xususiyatlariga ega, turli xil funksional xususiyatlariga ega, yuqori gigienik va estetik ko'rsatkichlarga ega zamonaviy innovatsion materiallarni yaratish va tadqiq etish bilan horijda A. Adamyan, A.F. Plexanov (Rossiya), N.A. Vinogradova (Belorussiya), A.B. Ishmatov (Tojikiston) va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Respublikamizda turli xil to'qimachilik tolalari, iplaridan tibbiy kiyim-kechak, choyshabbop, tibbiy vositalar uchun materiallarini ishlab chiqarish texnologiyasi va usullarini kengaytirish bo'yicha tadqiqotlar X.A. Alimova, A. E. G'ulomov, F.U. Nigmatova, N. R. Xanxodjayeva, G.H. Gulyaeva va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida to'qimachilik sohasida muayyan darajada ijobjiy natjalarga erishilgan bo'lsada, murakkab tuzilishli funksional xususiyatli to'qimalarni to'quv dastgohida olish texnologiyasini ishlab chiqish va ratsional parametrlerini asoslash bo'yicha yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № OT-Itex-2018-1 «Sportchilar uchun mo'ljallangan maxsus to'qimalarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini tadqiq etish» (2018) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy to'quv uskunalarida murakkab tuzilishga ega funksional to'qimalarni olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

murakkab tuzilishli funksional xususiyatli to'qimalarni to'quv dastgohida olish texnologiyasini ishlab chiqish;

turli xil geometrik parametrlerga ega bo'lgan murakkab tuzilishli to'qimaning texnologik va tuzilish omillarini aniqlash;

o'zgaruvchan to'qima qalinligiga ega funksional to'qimalarni loyihalash usulini ishlab chiqish;

murakkab tuzilishli funksional to'qimaning iste'mol xususiyatlarini tahlil qilish;

to'quv dastgohida murakkab tuzilishga ega to'qimalarni ishlab chiqarishning muqobil parametrlerini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida zamonaviy elektron to'quv dastgohlari, paxta va *Modal* aralash eshilgan iplar, murakkab tuzilishli funksional xususiyatli to'qimalar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida poliefir, aralash tolali eshilgan iplardan murakkab tuzilishli funksional xususiyatlari to‘qima olish texnologiyasi hamda yangi assortimentdagi funksional to‘qimalar xususiyatlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida hisoblash matematikasining sonli usullari, nazariy mexanika qonuniyatlar, statistik tahlil, funksional to‘qimani to‘quv dastgohida shakllanishi va tuzilish omillarining uning xususiyatlariga ta’siri va bog‘liqligini aniqlash, eksperimentlarni matematik rejalashtirish va tenzometriya usullaridan foydalaniilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

belgilangan to‘qima xususiyatlari va texnologik parametrlari tahlili asosida turlicha o‘lchamdagи o‘zgaruvchan qalinlikdagi murakkab tuzilishli funksional to‘qimalar ishlab chiqilgan;

o‘zgaruvchan qalinlikdagi, murakkab tuzilishli funksional matolarning geometrik va texnologik omillar ko‘rsatkichlarini e’tiborga olgan holda yangi loyihalash usuli ishlab chiqilgan;

to‘quv dastgohida to‘qimani murakkab tuzilishini shakllantirish texnologiyasi funksional matolarni o‘zgaruvchan qalinligini hisobga olish asosida ishlab chiqilgan;

ko‘p omilli tajribalarni qayta ishlash usulini qo‘llagan holda murakkab tuzilishli funksional matolarni to‘quv dastgohida olish jarayonining texnologik muqobil parametrlari regression tenglamalarni tahlil qilish asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quydagilardan iborat:

funksional matolar assortimentini kengaytirish imkonini beruvchi murakkab tuzilishga ega yangi kombinatsiyalar ishlab chiqilgan;

turli texnologik va geometrik parametrlarga ega o‘zgaruvchan qalinlikda funksional mato namunalari to‘quv dastgohida ishlab chiqilgan;

turli tarkibli xomashyo va to‘quv o‘rilishlaridan foydalangan holda, yangi funksional xususiyatlarga ega murakkab tuzilmali matolarini ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning mosligi, aprobatasiya va joriy qilinishi natijalarining ijobiliyigi, shuningdek natijalarning solishtirilishi, baholash mezonlari bo‘yicha va ularning adekvatliligi, tadqiqotning ijobiliy natijalarini ushbu fan sohasida olingan ma’lumotlar bilan qiyosiy taqqoslanishi bilan ta’milanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to‘quvchilik korxonalarida mavjud dastgohlardan foydalaniib, o‘zgaruvchan qalinlikdagi funksional to‘qimaning geometrik va texnologik omillarini aniqlashning loyihalash usuli ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turli xil texnologik va geometrik parametrlarga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan to‘qima qalinligida funksional to‘qimalarni to‘quv dastgohida olish texnologiyasi ishlab chiqilgan, turlicha tolaviy tarkibli, to‘quv o‘rilishlaridan foydalangan holda yangi funksional xususiyatlarga ega murakkab tuzilishli to‘qima matolarini ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Funksional to‘qimalarni tuzilishini va ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha erishilgan natijalar asosida:

funksional xususiyatli choyshabbop to‘qima uchun O‘zbekiston Respublikasining ixtiroga patenti olingan (№ IAP 07369. 14.04.2023). Natijada mahalliy xom ashyodan murakkab tuzilishli funksional to‘qimalar assortimenti kengaytirilgan;

mahalliy xomashyodan ishlab chiqarilgan murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni olish texnologiyasi Toshkent shahridagi MCHJ “RealTexTashkent”, MCHJ “SunTex” va Buxoro shahridagi MCHJ "Al Hakimplus" korxonalarining zamonaviy to‘quv uskunalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 13-sentyabrdagi № 03/25 2660-son ma’lumotnomasi). Natijada, mahalliy paxta aralash Modal iplaridan olingan funksional to‘qimaning uzilish kuchi 24%ga, havo o‘tkazuvchanligi 15% ga, gigroskopiklik xususiyatini 50% ga oshishiga va dastgohdagi uzilishlar sonini 33% ga kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 16 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, jumladan 8 ta xalqaro va 8 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan va 1 ta ixtiroga patent olingan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsyaning hajmi 113 betni tashkil qildi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning **“Murakkab tuzilishli to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasiga oid adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida jahonda hamda Respublikamizda murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyalari va olish usullariga, qo‘llanilish sohalarini o‘rganishga, funksional xususiyatli to‘qimalarning tibbiyotda qo‘llaniladigan assortimentlari va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarining tahliliga bag‘ishlangan.

Jahonda funksional xususiyatli to‘qimalarni ishlab chiqarishning yangi usullarini yaratish bo‘yicha bir qator ishlar olib borilgan. Ishlab chiqilgan zamonaviy innovatsion to‘qimachilik materiallarini tizimlashtirish maqsadida ushbu

yo‘nalishdagi me’yoriy va patent hujjatlari, sanoat namunalari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlari tahlil etilgan.

Olingen adabiyotlar tahlillari va analitik tadqiqotlar natijasida tibbiy to‘qimalarning mavjud assortimenti tuzilgan va innovatsion to‘qimani asosiy va eng umumiy xususiyat sifatida tasniflash mahsulotning maqsadini belgilaydigan funksionallik va murakkab tuzilishiga asoslangan. Murakkab tuzilishli funksional xususiyatli to‘qimalar chet eldan keltirilishi to‘qimachilik mahsulotlarining tannarxining oshishiga olib keladi. Adabiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, tibbiy to‘qimalarning xususiyatlarini o‘rganish uchun yetarli tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Shuning uchun, ushbu turdagи tadqiqotlar nafaqat ilmiy, balki tibbiy to‘qimalar assortimentini mahalliy xomashyodan mavjud jihozlarda ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish ham amaliy qiziqish uyg‘otadi. Shubhasiz, to‘quvchilikning har bir yangi ilmiy-texnik yo‘nalishi to‘qima tuzilishini, uni ishlab chiqarish texnologiyasini va to‘quv uskunalarini takomillashtirishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu holatlarni hisobga olgan holda, tibbiy maqsadlar uchun murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarini olish texnologiyasini tadqiq qilish va ishlab chiqish dolzarb va maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni olish texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan ikkinchi bobida harakati cheklangan bemorlar uchun choyshabbop to‘qimalarga qo‘yilgan talablar, to‘qimaning tuzilishi va xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan texnologik parametrлari tadqiq etilgan.


Loyihalashtirilayotgan to‘qima uchun xomashyo turi to‘qimaning qo‘llanilishi va unga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda tanlandi. Tanda va arqoq uchun ishlatiladigan iplarning xususiyatlari asosan ulardan ishlab chiqarilgan to‘qimaning xususiyatlarini aniqlaydi. Maxsus funksiyalarga ega bo‘lgan to‘qimachilik materiallariga bo‘lgan ehtiyoj atrof-muhitning o‘zgarishi, inson faoliyati yoki uning jismoniy holati bilan bog‘liq bo‘lib, eng zaif holatda bo‘lgan bemorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining “Tikuv buyumlari texnologiyasi” kafedralari olimlari Respublika nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi negizida harakati cheklangan og‘ir bemorlar tana tayanch yuzidagi patologik o‘zgarishlarga ega bemorlar uchun buyumlar assortimentini loyihalashga, “To‘qimachilik matolari texnologiyasi” mutaxassislari tomonidan murakkab tuzilishdagi funksional to‘qimalarni olish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Adabiyotlar tahlili va amaliy tadqiqotlar bo‘yicha, hamda aniqlangan muammoni yechish uchun, murakkab tuzilishli funksional to‘qimaning bir necha kombinatsiyalari ishlab chiqildi va 1 va 2 -rasmda turli xil to‘qima qalinligi bilan kombinatsiyalar ko‘rsatilgan.

Bunday kombinatsiyalarni olish uchun to‘qima qalinligi o‘zgaruvchan va joylashuvi bo‘lgan turli o‘lchamdagи yo‘l-yo‘l qatorlardan, hamda mustahkam to‘qimani olish uchun bosh o‘rilishlardan, polotno, sarja, atlas o‘rilishlari, shuningdek ularning hosilalaridan foydalanildi.

Murakkab tuzilishli to‘qimaning turli xil kombinatsiyalarini to‘quv dastgohida olish uchun ikki usul ishlab chiqildi: birinchi usul, to‘qimani shakllantirish jarayonida turli xil chiziqli zichlikdagi arqoq yoki tanda iplaridan; Ikkinci usul, dastgohda to‘qima hosil qilishda turli xil to‘qima qatlamlaridan foydalanildi.



**1-rasm. Bir qatlamlili
to‘qimani arqoq
ipining
o‘zgaruvchan
yo‘g‘onlikda olish
qirqimi**



**2-rasm O‘zgaruvchan
qatlamlar asosida
murakkab tuzilishdagi
to‘qima qirqimi**

1-rasmda bir qatlamlili to‘qimani arqoq ipining o‘zgaruvchan yo‘g‘onlikda (birinchi usul) olishning geometrik modeli keltirilgan. Tanda rapporti 2 ta ipga, arqoq rapporti esa 12 ga teng. To‘qima qalinligi kichik bo‘lgan birinchi homuzaga chiziqli zichligi minimal bo‘lgan ipi tashlandi-**b** va to‘qimaning qalinligi yug‘on qismiga katta chiziqli zichlikka ega arqoq iplari tashlanib-**a** murakkab tuzilishli to‘qima olishga erishildi (1.a kombinatsiyasi). Chiziqli zichligi yo‘g‘on arqoq iplari (**a**- to‘qimadagi qism) 2- kichik chiziqli zichlikka ega (**b**- to‘qimadagi qism) navbatma-navbat homuzaga tashlanib, o‘zgarmas yo‘g‘onlikdagi tanda iplari bilan o‘zaro polotnoli o‘rilishda murakkab tuzilishni hosil qiladi. Shuning uchun, to‘qimadagi **a**- qismining uzunligi T_1 -ipning chiziqli zichligi va diametriga teng, to‘qimada **b**- qismi T_2 -ipning chiziqli zichligiga va diametriga teng bo‘lib, bu to‘qima yuzasida havo oqimi harakatlanadigan bo‘rtmalar va o‘yiqlar hosil qiladi.

2-rasmda Murakkab tuzilishdagi o‘zgaruvchan to‘qima qatlamlarining geometrik modeli olinib (ikkinci usul), murakkab tuzilishga ega to‘qima hosil bo‘lganda, to‘qimaning ko‘p qatlamlili qismi ishlab chiqarilganda, to‘qimaning qalinligi ortadi va bir qatlamlili qism ishlab chiqarilganda to‘qimaning qalinligi kamayadi. To‘qimalar yuzasida bo‘rtma va o‘yiqlar hosil bo‘ladi. Bu usulda olingan murakkab tuzilishli to‘qimaning o‘zgaruvchan qalinligi to‘qimani qo‘llanishi va talablari asosida olinadi.

Texnologik teng sharoitlarda olingan murakkab tuzilishdagi to‘qimaning qalinligi qatlamlar soniga bog‘liq va doimiy bo‘lib, faqat dastgohning texnik imkoniyatlari bilan cheklangan miqdordir.

To‘quv dastgohida yangi funksional to‘qimaning shakllanishi va tuzilishi arqoq ipining o‘zgaruvchan chiziqli zichlikda to‘qimalarni ishlab chiqarish Itema (Italiya) kompaniyasining zamonaviy R9500 dastgohlarida amalga oshirildi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, funksional maqsadlar uchun o‘zgaruvchan tuzilishga ega tajribaviy namunalarni ishlab chiqarish uchun quyidagi

texnologik sharoitlar qabul qilindi: — 3939 art. "Tik matras" paxta tolali to‘qimasini to‘quv dastgohida ishlab chiqarishning taxtlash omillari asos qilib tanlandi. Asos namunalarning to‘qimadagi tanda zichligi 10 sm ga 240 ip, arqoq uchun 10 sm ga 150 ip bilan ishlab chiqarilgan; Barcha variantlar uchun tanda ip sifatida 25x2 teks chiziqli zichlikdagi 100% paxta iplari, I, IV variant arqoq iplari sifatida 100% paxta, II, V variant 100% Modal, III, VI variant 50% paxta +50 ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. To‘qimaning barcha namunalari polotnoli o‘rilish bilan ishlab chiqarilgan.


Murakkab tuzilishli funksional to‘qima barcha namunalari uchun texnologik omillari texnik hisobi mavjud metodologiya bo‘yicha bajarildi.

1-jadval


Funksional to‘qimaning texnologik parametrlari

Nº	Omillar	I namuna	II namuna	III namuna
1	Xom ashyo tolaviy tarkibi: Tanda Arqoq	100% paxta 100% paxta	100% paxta 100% Modal	100% paxta 50% paxta+ 50% Modal
2	Xom ashyoning chiziqli zichligi: teks, Tanda T_1 - arqoq T_2 -arqoq	25x2 30x4 30	25x2 30x4 30	25x2 30x4 30
3	To‘qimadagi iplarning zichligi, ip/dm: Tanda Arqoq	240 150	240 150	240 150
4	Iplar soni, dona	4400	4400	4400
5	Xom to‘qima eni, sm	180	180	180
6	O‘rilish turi	P o l o t n o l i		
9	100 m to‘qima ishlab chiqarish uchun tanda iplarining massasi, kg	54,594	54,594	54,594
10	100 m to‘qima ishlab chiqarish uchun arqoq iplarining massasi,kg	43,15	43,15	43,15
11	To‘qimalarning sirt zichligi,g / m ²	531	531	531

Murakkab tuzilishli funksional yangi to‘qima IV, V va VI namunalari o‘zgaruvchan to‘qima qatlamlari 6:1 bo‘lgan to‘qima tuzilishiga ega. To‘quv dastgohida to‘qima ishlab chiqarishda olti qatlamlili qism hosil bo‘ladi, so‘ngro to‘qimaning bir qatlamlili qismi hosil bo‘ladi. Qatlamlarning bu nisbati to‘qima yuzasida bo‘rtma va o‘yiqlarni hosil qiladi, bu esa nafaqat yaxshi havo almashinuvi va namlikni atrofga uzatishini, buyum quruqligini ta’minalash, balki bo‘rtma va o‘yiqlar hisobiga massaj xususiyatlariga ham ega. Dastgohda murakkab tuzilishli to‘qima namunalari polotnoli o‘rilish bilan ishlab chiqarilganligi sababli, tanda rapporti $R_o = 12$, to‘qimaning olti qatlam qismida arqoq rapporti $R_y1 = 72$, bir qatlam qismida esa $R_y2 = 2$ ga teng. 5- Rasmida, Murakkab tuzilishli funksional to‘qimani bo‘ylamasiga o‘zgaruvchan qatlamlar hisobiga olish to‘liq taxtlash dasturi keltirilgan.



a)



b)

O‘zgaruvchan qatlamlı namunalarning texnologik omillarini aniqlash uchun to‘qimaning texnik hisobi amalga oshirildi.

2-jadval

O‘zgaruvchan qalinlikli to‘qimaning texnologik parametrlari

No	Omillar	IV namuna	V namuna	VI namuna
1	Tolali tarkibi: Tanda Arqoq	100% paxta 100% paxta	100% paxta 100% Modal	100% paxta 50% paxta+ 50% Modal
2	Xom ashyoning chiziqli zichligi, teks: tanda arqoq	25x2 30	25x2 30	25x2 30
3	To‘qimadagi iplarning zichligi, ip/dm: tanda arqoq	240 150	240 150	240 150
4	Iplar soni, dona	4400	4400	4400
5	Murakkab to‘qimaning eni, mm	180	180	180
6	to‘quv o‘rilishi		Polotnoli	
7	100 m to‘qima ishlab chiqarish uchun tanda iplarning massasi, kg	50,207	50,207	50,207
8	100 m to‘qima ishlab chiqarish uchun arqoq iplarning massasi,kg	17,12	17,12	17,12
9	To‘qimaning sirt zichligi,g/ m2	365,8	365,8	365,8

To‘qima namunalari murakkab tuzilishga ega bo‘lganligi sababli, hisoblangan texnologik omillar obyektiv baho bermaydi, chunki mavjud texnik hisob metodi to‘qima tuzilishini hisobga olmaydi.

Dissertatsiyaning “Murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni loyihalash” deb nomlangan uchinchi bobida murakkab tuzilishga ega to‘qimalarni ishlab chiqarishda to‘qima tuzilishi parametrlarining ta’sirini o‘rganish, tanda va arqoq iplarining diametri, tanda va arqoq iplarining to‘lqin balandligi, iplarning yarim to‘lqin uzunligi, tanda va arqoq iplarining qisqarishi, to‘qimaning sirt zichligi, to‘qimani tanda va arqoq iplari bilan to‘ldirish darajasi bir qatlamlili o‘zgaruvchan qatlamlili to‘qimalarning yangi loyihalash usuli ishlab chiqildi.

To‘qima namunalari murakkab tuzilishga ega bo‘lganligi sababli, to‘qima yuzasida bo‘rtma va o‘yiqlarni tanda va arqoq yo‘nalishi bo‘yicha eni va uzunligini aniqlash kerak. Yuqori chiziqli zichlik va minimal chiziqli zichlikka ega bo‘lgan qatorlar kengligi:

$$B_o = R_{o.c} \cdot B_c \quad (1)$$

Arqoq bo‘yicha yuqori chiziqli zichlikdagi to‘qima eni, sm

$$B_{y_1} = P_{e.c} \cdot a_c \quad (2)$$

Minimal chiziqli zichligi bilan to‘qima eni

$$B_{y_2} = P_{e.c} \cdot \delta_c \quad (3)$$

Bu yerda: B_c – xom to‘qimaning kengligi, sm;

B_o – yuqori va minimal chiziqli zichlikdagi to‘qima eni, sm;


B_{y1} – to‘qimaning eni bo‘ylab yuqori chiziqli zichlikdagi qator uzunligi, sm;

B_{y2} – to‘qimaning eni bo‘yicha minimal chiziqli zichlikka ega bo‘lgan qator uzunligi, sm;

a_c – to‘qima bo‘ylab yuqori chiziqli zichlikdagi qator uzunligi, sm;

δ_c – to‘qima bo‘ylab minimal chiziqli zichlikka ega bo‘lgan qator uzunligi, sm.

4-rasmda loyihalashtirilgan to‘qimaning geometrik modeli ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, yangi to‘qima tanda va arqoq iplarining uzlusiz qatoridan to‘qilgan.



4- rasm. To‘quv ipining o‘zgaruvchan chiziqli zichligi bilan to‘qimaning geometrik modeli

Bu erda: h_{o1}, h_{o2} – tanda iplarning egilish to‘lqin balandligi;

h_{a1}, h_{a2} – arqoq iplarning egilish to‘lqin balandligi;

L_{a1}, L_{a2} – Arqoq iplari to‘lqin balandligining yarim to‘lqin uzunligi

To‘qimaning qalin va ingichka qismida tanda va arqoq ipi diametrini aniqlaymiz

$$d_t = 0,0316 \cdot C \sqrt{T_t} \quad (4)$$

$$\begin{aligned} d_{a1} &= 0,0316 \cdot C \sqrt{T_{a1}} \\ d_{a2} &= 0,0316 \cdot C \sqrt{T_{a2}} \end{aligned} \quad (5)$$

(5) formulalardagi iplarning diametrlari qiymatlarini almashtirib, to‘qimaning har bir qismidagi qalinligini aniqlaymiz:

T_{y1}-Chiziqli zichlikdagi to‘qimaning qalinligi

$$T_{T1} = 2d_{a1} + d_t \quad (6)$$

T_{y2} -Chiziqli zichlikdagi to‘qimaning qalinligi

$$T_{T2} = 2d_{a2} + d_t \quad (7)$$

Iplarning egilish to‘lqin balandligi

$$\text{Tanda } h_o = d_0 \cdot K_{ho}$$

$$\text{arqoq } h_{y1} = d_{y1} \cdot K_{hy} ; \quad h_{y2} = d_{y2} \cdot K_{hy} \quad (8)$$

K_{ho}, K_{hy} – to‘qima tuzilishi fazasining tartibiga qarab, tanda va arqoq iplarining egilish to‘lqin balandligidagi o‘zgarishlarni hisobga oladigan koeffitsiyentlar.

Geometrik zichlik ikkita qo‘shti ipning markazlari orasidagi masofa bilan tavsiflanadi.

Har bir qism uchun to‘qimaning tanda bo‘yicha geometrik zichligi, mm

$$l_{o1} = \sqrt{(d_o + d_{y1})^2 - h_o^2} ; \quad l_{o2} = \sqrt{(d_o + d_{y2})^2 - h_o^2}$$

Har bir qism uchun to‘qimaning arqoq bo‘yicha geometrik zichligi, mm

$$l_{y1} = \sqrt{(d_o + d_{y1})^2 - h_{y1}^2} ; \quad l_{y2} = \sqrt{(d_o + d_{y2})^2 - h_{y2}^2}$$

To‘quv dastgohida murakkab tuzilishli to‘qima ishlab chiqarishga imkon beradigan asosiy omillardan biri bu to‘qimadagi iplarning qisqarishi.

Loyihalanayotgan to‘qimaning har bir qismi uchun iplarning qisqarishini aniqlash, %:to‘qima qalinligi T_{T1} qismida , tanda uchun

$$a_{o1} = \frac{t_o(\sqrt{l_{y\phi 1}^2 + h_o^2} - l_{y\phi 1})}{t_o(\sqrt{l_{y\phi 1}^2 + h_o^2} + (R_y - t_o) \frac{d_{y1}}{K_{Hy1}})} \cdot 100 \quad (9)$$

$$\text{arqoq uchun: } a_{y1} = \frac{t_y(\sqrt{l_{o\phi}^2 + h_{y1}^2} - l_{o\phi})}{t_y(\sqrt{l_{o\phi}^2 + h_{y1}^2} + (R_o - t_y) \frac{d_o}{K_{Ho}})} \cdot 100$$

Ip qisqarishi, % to‘qima qalinligi T_{T2} qismida, tanda uchun

$$a_{o2} = \frac{t_o(\sqrt{l_{y\phi 2}^2 + h_o^2} - l_{y\phi 2})}{t_o(\sqrt{l_{y\phi 2}^2 + h_o^2} + (R_y - t_o) \frac{d_{y2}}{K_{Hy2}})} \cdot 100$$

$$\text{arqoq uchun: } a_{y2} = \frac{t_y(\sqrt{l_{o\phi}^2 + h_{y2}^2} - l_{o\phi})}{t_y(\sqrt{l_{o\phi}^2 + h_{y2}^2} + (R_o - t_y) \frac{d_o}{K_{Ho}})} \cdot 100 \quad (10)$$

Bu yerda: K_{ho}, K_{hy} – to‘qimani tolali material bilan tanda va arqoq bilan to‘ldirish koeffitsiyentlari;

Murakkab tuzilishli o‘zgaruvchan qalinlikdagi to‘qimaning sirt zichligini aniqlash tenglamasi olindi,g/m²

$$q_r = \frac{10P_o \cdot T_o}{10^3 \cdot (1 - 0,01a_{o2})} + \frac{10P_y \cdot T_{y1}}{10^3 \cdot (1 - 0,01a_{y1})} + \frac{10P_o \cdot T_o}{10^3 \cdot (1 - 0,01a_{o2})} + \frac{10P_y \cdot T_{y1}}{10^3 \cdot (1 - 0,01a_{y1})} \quad (11)$$

Ishlab chiqilgan o‘zgaruvchan qatlamlili to‘qimalarning yangi loyihalash usuli asosida to‘qima tuzilishiga ta’sir etuvchi geometrik omillar aniqlandi 3-jadval.

3-Jadval

Murakkab tuzilishli to‘qima iplarining geometrik parametrlari


№	Parametrlar	Bir qatlamlili to‘qima, o‘zgaruvchan xom ashyo qalinligi bilan		
		I	II	III
2	Tolali tarkibi:Tanda Arqoq	100% paxta 100% paxta	100% paxta 100% Modal	100% paxta 50%x/6+50% Modal
3	Xom ashyoning chiziqli zichligi: teks Tanda Arqoq	25x2 1.30x4 2. 30	25x2 1.30x4 2. 30	25x2 1.30x4 2. 30
4	Ipning diametri, mm:tanda d_o arqoq d_{y1} arqoq d_{y2}	0,268 0,432 0,216	0,268 0,382 0,191	0,268 0,408 0,204
5	To‘lqin balandligi, mm:tanda H1 arqoq H2 arqoq	0,335 0,324 0,162	0,335 0,285 0,142	0,335 0,306 0,153
6	Geometrik zichlik, mm:Tanda l_{o1} l_{o2} arqoq l_{y1} arqoq l_{y2}	0,61 0,34 0,62 0,45	0,55 0,31 0,58 0,43	0,58 0,33 0,6 0,44
7	To‘qimani to‘ldirish koeffitsiyenti K_{HTI} K_{HTI}	1,76 0,83	1,5 0,74	1,63 0,79
8	To‘qimaning qalinligi, mm	1,13 0,75	1,03 0,73	1,08 0,74
9	Iplarni qisqarishi, %: tanda a_{o1} arqoq a_{y1} tanda a_{o2} arqoq a_{y1_2}	13.03 25.67 11.7 12	13.03 22.4 11.7 10.8	13.03 24.9 11.7 11.5
10	To‘qimadagi iplarning zichligi, ip/dm: Tanda Arqoq	206.6 142.8	211,86 147,8	218,3 154,3
11	To‘qimalarning sirt zichligi Γ/m^2	567.1	528,5	556,2

Loyihalanayotgan murakkab tuzilishli to‘qimaning hisob natijalariga ko‘ra, II variantning sirt zichligi I variantga nisbatan 39 g ga, III variantga nisbatan 27,7 g ga kam.

Modal ipining diametri kichik qiymatga ega, bu esa o‘z navbatida tanda va arqoq iplarining to‘lqin balandligiga, geometrik zichligiga, to‘qimaning qalinligiga, hamda,

tanda va arqoqning texnologik zichligiga va arqoq iplarining qisqarishiga, to‘quv dastgohida to‘qimani taxtlash va ishlab chiqarish parametrlariga ta’sir qiladi. Ma’lumki, iplarning qisqarishi to‘qima ishlab chiqarishda xom ashyo sarfini aniqlaydi.

Shuningdek, o‘zgaruvchan qatlamlari to‘qimalarni texnologik omillari va tuzilish ko‘rsatkichlari asosida loyihalash usuli ishlab chiqildi



5 – rasm. Murakkab tuzilishli o‘zgaruvchan qatlamlar asosida olingan to‘qimaning geometrik qirqimi.

Murakkab tuzilishdagi funksional to‘qimalarni nazariy tadqiqot usullari ko‘p qatlamlari to‘qimalarining tuzilishi va loyihalash nazariyasidan foydalangan holda olib borildi. 5-rasm (a), To‘qima o‘rilishi asosida 11 tanda ipi 6,18,19 20,...,65,67,66, 5-rasm (b), arqoq iplari bilan o‘zaro o‘rilib kirishib, tanda qoplanishni hosil qiladi va to‘qimaning bo‘rtma qismini, 73 -75 arqoq iplari bilan o‘rilib hosil qilib o‘yiq qismini tashkil etadi. 5-rasm v, 12 tanda iplarining 7,17,18,19 ... 63,66, 67 arqoq iplari bilan o‘zaro o‘rilib hosil qilib tanda qoplanishni hosil qilib, murakkab tuzilishga ega bo‘ladi. qirqimi olindi, 5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, olti qatlamlari qismning bir qatlamlari qismi bilan ulanish qismida arqoq rapporti- $R_{t.c}$, to‘qimaning P_{y1} - qismidagi arqoq zichligi va P_{y2} – qismining shakllanishida arqoq zichligiga bog‘liq.

Qatlamlari tanda ipler bilan bog‘lanishli bo‘lgan to‘qimaning olti qatlamlari qismi uchun tanda rapporti quyidagicha aniqlanadi:


$$R_{t_1} = R_{t.c} \cdot n_q = 2 \cdot 6 = 12,$$

Arqoq rapporti:

$$R_{a_1} = R_{y.c} \cdot n_q = 12 \cdot 6 = 72$$

Bu yerda: $R_{t.c}$, $R_{a.c}$ – to‘qimaning tanda va arqoq rapportlari;

n_q — loyihalashtirilgan to‘qimadagi qatlamlar soni



6-rasm Murakkab tuzilishdagi funksional to‘qimalarning ko‘rinishi.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, to‘qimaning qalinligi o‘zgaruvchan, bu holda to‘qimaning olti qavatli qismi tanda yo‘nalishi bo‘yicha kengligi 4,0 sm, to‘qimaning bir qatlamlili qismi esa 2,5 sm. shu tarzda to‘qima yuzasida bo‘rtma va o‘yiqlar hosil bo‘ladi.

Bu holat uchun, naqsh raportini har bir qism uchun aniqlash kerak:

Tanda naqsh rapporti:

$$R_{t_{naqsh_1}} = P_t \cdot B_{naqsh}$$

arqoq naqsh rapporti :

$$R_{a_{naqsh_1}} = P_{y1} \cdot l_{naqsh}$$

Shuningdek, to‘qima namunasining bir qatlamlili qismi uchun ham tanda va arqoq rapportini aniqlash kerak:

Tanda naqsh rapporti: $R_{t_{naqsh_2}} = P_t \cdot B_{naqsh}$

Arqoq naqsh rapporti

$$R_{a_{naqsh_2}} = P_{a_2} \cdot l_{naqsh}$$

Bu yerda: P_{a1}, P_{a2} - murakkab tuzilishli to‘qimaning arqoq iplarining zichligi, ip / dm;

B_{naqsh} - murakkab tuzilishli to‘qimaning naqsh eni dastgohning ishchi kengligiga teng, sm;

l_{naqsh} – naqshning uzunligi, tanda yo‘nalishi bo‘ylab, sm

Murakkab tuzilishga ega to‘qima uchun, har bir qatlamning rapportida arqoq iplar soni turlicha bo‘lgan holda, arqoq rapporti har bir qatlamning arqoq naqsh rapporti yig‘indisiga teng aniqlanadi:

$$R_{a_{naqsh}} = R_{a_1 y_{naqsh}} + R_{a_2 y_{naqsh}}$$

To‘qimaning to‘qilishi polotno o‘rlishda, to‘qima qatlamlarini aralash bog‘lash usulida, qatlamlardagi tanda va arqoq iplar nisbati 1:1:1:1:1:1.

Ipni tolaviy tarkibini ifodalovchi koeffitsiyent

$$C = 1,13 / \sqrt{n_1 \delta_1 + n_2 \delta_2}$$

Bu yerda: δ_1 – paxta ipning o‘rtacha zichligi jadvaldan olinadi (1) 1,25;

δ_2 – Modal kimyoviy iplarining o‘rtacha zichligi 1,1, (1) jadvaldan olamiz;

n_1 -ipdagisi paxta tolasining ulushi;

n_2 -ipdagisi Modal tolaning ulushi.

To‘qimaning qalinligi har bir qismning tanda va arqoq iplarining diametriga bog‘liqligini hisobga olib, u quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

To‘qimadagi iplarning hisobiy diametrлари quyidagicha aniqlanadi:

$$d_{p_{t1..n}} = \frac{n(d_{t1} + d_{a1})}{2}$$

$$d_{p_{a1..n}} = \frac{n(d_{t1} + d_{a1})}{2} \quad (12)$$

Bu erda: n - to‘qimada qatlamlar soni.

Olingen natijalar arqoq ip uchun turli xil tolali kompozitsiyalardan foydalanganligi sababli, V variantidagi ipning diametri olti qatlamlari qismiga tanda va arqoq 1,41 mm, bir qatlamlari qismida tanda diametrik 0,280mm, arqoq uchun 0,191 mm, bu IV variantning diametrлари ko‘rsatkichlaridan nisbatan kam. Ma’lumki, iplarning diametri iplarning egilish to‘lqinlarining balandligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsional ta’sir qiladi, u kamayadi. To‘qimadagi iplarning zichligi oshadi, V variantida olti qatlamlari qismidagi arqoq zichligi 501 ip/dm, bir qatlamlari qismida esa 488 ip /dm, arqoq zichligining oshishi, o‘z navbatida, to‘qimalarning sirt zichligining oshishiga olib keladi (4-jadval).

4-jadval

Murakkab tuzilishli funksional to‘qimasida iplarning geometrik omillari

№	Omillar	To‘qimaning o‘zgaruvchan qatlamlari bilan namunalar		
		IV-namuna	V-namuna	VI-namuna
1.	Tolali tarkibi: Tanda Arqoq	100% paxta 100% paxta	100% paxta 100% Modal	100% paxta 50%x/6+50% Modal
2.	Xom ashyoning chiziqli zichligi: teks,Tanda Arqoq	25x2 30	25x2 30	25x2 30
3.	Iplarning egilish to‘lqin balandligi, mm:Tanda Arqoq	6/1 1,12 / 0,280 1,86/ 0,216	6/1 1 06/ 0,280 1,76/0,19	6/1 1,09/ 0,280 1,815/0,204
4.	Ipning diametri, mm tanda/ arqoq	1,488 /0,280 1,488 /0,216	1,41/0,280 1,41/0,191	1,452 / 0,280 1,452/0,204
5.	Geometrik.zichlik, mm Tanda Arqoq	2,76 /0,41 2,32/ 0,45	2,613/0,377 2,203/0,43	2,69/0,39 2,267/0,439
6.	To‘qimaning qalinligi, mm qalinlashgan qismi / ingichka qismi	1,700 0,700	1,700 0,700	1,900 0,800
7.	To‘qimadagi ipning zichligi, ip/dm:Tanda Arqoq	357/ 357 443 /433	357/357 501/488	357/357 468/ 457
8.	Iplarni qisqarishi,% ,Tanda Arqoq	17,9/ 5,29 26,5 /4,6	14,0/ 4,31 26,4/ 4,14	15,8/4,93 26,5/4,47
9.	To‘qimalarning sirt zichligi, g / m ²	636	668	650

Hisob natijalariga ko‘ra, V variantining IV variantiga nisbatan sirt zichligi 5% ga, VI varinatiga nisbatan 2% ga ko‘p. Namuna VI to‘qimalaring qalinligi IV va V variantlariga qaraganda 11% yuqori.

Murakkab tuzilishli funksional to‘qimani olish uchun arqoq iplari sifatida IV variant 100% paxta, V variant 100% Modal, VI variant 50% x/b +50% ishlatilgan. Iste’molchi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan to‘qima massaj xususiyatlariga ega bo‘lishini hisobga olganda, VI variant to‘qima namunasining istemol talablariga ko‘proq mos keladi.

Dissertatsiyaning “**Murakkab tuzilishli funksional to‘qimalar samaradorligi va ishlab chiqarishning muqobil omillarini aniqlash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida murakkab tuzilishga ega funksional xususiyatlari to‘qimani to‘quv dastgohida shakllantirishda tuzilish omillari asosida ishlab chiqarishning muqobil omillarini aniqlash bo‘yicha xom ashyning tolaviy tarkibi, o‘zgaruvchan to‘qima qalinligi, ip buramlar sonining tanda iplarning uzilishiga va to‘qimaning havo o‘tqazuvchanligiga ta’sirini baholash uchun to‘liq faktorli tajriba o‘tkazildi. To‘qima namunasini ishlab chiqarish Somet Thema Super Excel-190 to‘quv dastgohida amalga oshirildi. Aprior ma’lumotlarini tahlil qilish va dastlabki tajribalar natijalariga ko‘ra chiqish ko‘rsatkichiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan quyidagi omillar aniqlandi: X₁- xom ashymda paxta tolasining ulushi, %, X₂ –to‘qima qalinligi ,mm, X₃ -Ip buramlar soni, br/m.

Aprior ma’lumotlarini, dastlabki tajriba natijalarini va to‘quv dastgohining texnik imkoniyatlarini tahlil qilish asosida, asosiy omillar qiymati va intervallari tanlab olindi, omillar sathi va intervallari aniqlandi 5- jadval.

5-jadval

Kiruvchi omillar sathi va intervallari

№	Omillar nomi	Kodlashti rilgan belgisi	Faktorning haqiqiy qiymati					O‘zga- rish oralig‘i
			-1,682	-1	0	+1	+1,682	
1	Xomashyoda modal tolasining ulushi, %	x_1	33	40	50	60	67	10
2	to‘qima qalinligi,mm	x_2	0,4	1	2	3	4	1
3	Ip buramlar soni, br/m	x_3	616	650	700	750	784	50


Styudent mezoni bo‘yicha koeffitsiyentlarning ahamiyatliligi tekshirilgach, to‘quv dastgohida tanda iplari uzilishi bo‘yicha regressiya tenglamasining oxirgi ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$Yr=0,5704-0,0272x_1-0,0117x_2-0,0549x_3+0,0515x_{12}+0,064x_{13}-0,1327x_1^2-0,2977x_2^2-0,3337x_3^2$$

To‘qimaning havo o‘tkazuvchanlik regressiya tenglamasi

$$Yr=96,6802 - 0,8784x_1 - 5.2704x_2 - 3.3672x_3 + 8.125x_{12} + 0.25x_{13} - 23,4339x_1^2 - 23,0589x_2^2 - 23,2464x_3^2$$


Yuqoridagi regression tenglamalar yechimlari kompyuter Mathcad dasturida hisoblanib, olingan izochiziqlari tahlil qilindi (7-8 rasm).



7-rasm. Tanda iplari uzilishlar soni izochiziqlari

Kiruvchi omillar orqali izochiziqlar kesishmasidan murakkab tuzilishli funksional to‘qimani to‘quv dastgohida olishda muqobil qiymatlar qoyidagicha:

1. xomashyoning tolaviy tarkibi , $X_1=40\%$ paxta va 60% Modal tolali;
 2. to‘qima qaliligi, $X_2=3$ mm;
 3. buramlar soni, $X_3=700$ bur/m, bo‘lganda to‘quv dastgohida murakkab tuzilishli funksional to‘qimani to‘qish jarayonida uzilishlar soni eng kam $Y_r=0,361$ uzuq/m, to‘qimaning havo o‘tkazuvchanligi $Y_r=92m^3/m^2$ cek teng bo‘ladi.



8-rasm. To‘qimaning havo‘tkazuvchanlik xususiyati izochiziqlari

Murakkab tuzilishli funksional to‘qima namunalarining fizik-mexanik va iste’mol xususiyatlari ko’rsatkichlari

Nº	Ko'rsatkichlar	Namuna I	Namuna II	Namuna III	Namuna IV	Namuna V	Namuna VI
2	Sirt zichligi, g/m ²	540	516	532	798	733	774
3	Uzilish kuchi, N Tanda	743	789	820	598	616,6	882,2
4	Uzilish kuchi, N Arqoq,Olti qatlam Bir qatlam qismi	1200	1350	1300	1800 900	1903 1000	2114 1100
5	Uzilishdagi uzayishi, %,Tanda	35	38	35	38 25	39 40	37,8 33
6	Uzilishdagi uzayishi, %, Arqoq	36,1	38	38	30 22	63 42	35 31
7	Gigroskopiklik, %	5,6	5,6	5,6	9	13	13
8	Ishqalanishga chidamliligi,sikl Olti qatlam qismi Bir qatlam qismi	5500	6300	6300	6300 5000	7800 7200	7800 7000
9	Havo o'tkazuvchani- ligi, dm ³ /m ² s , Olti qatlam qismi Bir qatlam qismi	7,5 10	7,5 15	7,5 13	40 50	45 90	45 70

Olingen murakkab tuzilishdagi funksional to‘qima namunalarining iste’mol va fizik-mexanik xususiyatlarini, uzishdagi pishiqlik va uzayishi, ishqalanishga chidamliligi, gigroskopiklik, havoo‘tqazuvchanligi va to‘qimalarning sirt zichligi sinovlari GOST 3811-72, GOST 3816-81 va GOST 12739-85 ga mos ravishda bajarildi.

Murakkab tuzilishli to‘qimalarning qo‘llanilishi boyicha yotoq bemorlar matrasbop to‘qimalar talabiga havo o‘tkazuvchanligi, to‘qimaning tuzilishi va ishlab chiqarishi bo‘yicha ikkinchi usulda olingen IV, V va VI namunalarini, qoyilgan talablarga mos keladi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslanib, mahalliy xom ashayodan murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni yotoq bemorlari uchun mo‘ljallangan ortopedik matraslari uchun ishlab chiqarish tavsiya etiladi. Tadqiqot ishida murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasini qo‘llash va undan olinadigan mahsulotlar texnologiyasini yaratish , amaliyotga tadbiq etishning iqtisodiy samaradorlik masalalari o‘rganildi.

Mahalliy xom ashayodan murakkab tuzilishli funksional to‘qima ishlab chiqarish texnologiyasini amaliyotga joriy etishdan, yillik iqtisodiy samaradorlik 58 mln so‘mni tashkil etdi.

XULOSA

1. Tibbiyyot maskanlarida qo‘llaniladigan choyshabbop to‘qimalar uchun aniqlangan talablarga muvofiq xarakati cheklangan bemorlar uchun belgilangan xususiyatlar va texnologik omillar asosida turlicha o‘lchamdagи o‘zgaruvchan qalinlikdagi funksional to‘qimalarning tuzilishi ishlab chiqildi.

2. Xarakati cheklangan yotoq bemorlar tanasida qon aylanishini va yaxshi havo almashinuvi, hamda massaj ta’sirini ta’minlaydigan mato yuzasida oyiq va bo‘rtma yul-yul naqshli murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni zamонави то‘кув dastgohida shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi.

3. Murakkab tuzilishli funksional to‘qimalarni zamонави то‘кув dastgohida shakllantirish texnologiyasi asosida tajribaviy namunalarini olindi. Xarakati cheklangan bemorlar uchun loyihalashtirilgan to‘qimaning barcha variantlarida tanda sifatida 25×2 teks chiziqli zichlikdagi 100% paxta iplaridan va arqoq sifatida 100% paxta, 100% Modal va 50% paxta +50% Modal aralash iplari ishlatildi va to‘qima namunalarini bosh polotno o‘rlishida ishlab chiqarildi, tanda bo‘yicha rapport $R_o = 12$, arqoq rapport $R_y_1 = 72$, $R_y_2 = 2$ tashkil etadi.

4. O‘zgaruvchan qalinlikdagi murakkab tuzilishga ega funksional to‘qimaning geometrik va texnologik parametrlari turli xil tolali arqoq iplaridan yangi loyihalash usuli ishlab chiqildi. foydalangan holda aniqlandi.

5. Murakkab tuzilishli funksional to‘qimaning geometrik omillari yangi loyihalash usuli bo‘yicha aniqlanib: V variant ip diametri olti qatlamlili qismning tanda va arqoq uchun 1,41 mm, bir qatlamlili qismning tanda diametri 0,280mm, arqoq diametri 0,191 mm, bu IV variantning ip diametri ko‘rsatkichlaridan nisbatan kam. Ip diametrining qiymati to‘qimadagi tanda va arqoq ipi zichligiga ta’sir etdi. V variantining olti qatlamlili qismidagi arqoq zichligi 501 ip/dm, bir qatlamlili qismi esa

488 ip/ dm tashkil etib, arqoq zichligining oshishi to‘qimalarning sirt zichligining oshishiga olib keldi.

6. Arqoq ipi tolaviy tarkibi - $X_1=40\%$ paxta 60 % Modal; to‘qima qalinligi — $X_2=2$ mm; buramlar soni $X_3=700$ bur/m bo‘lgan qiymatlarda uzilishlar sonini 0,361 uz/metrغا kamaytirishga va dastgoh unumdorligini oshirishga erishildi. Hamda kiruvchi omillarning shu qiymatlarida ishlab chiqarilgan murakkab tuzilishli funksional to‘qimaning havo o‘tqazuvchanligi $Y_r=92m^3/m^2\text{cek}$ tashkil etadi.

7. Harakati cheklangan bemorlar uchun murakkab tuzilishli funksional matrasbop to‘qima ishlab chiqarish texnologiyasini amaliyatga joriy etish, mahalliy xom ashyodan, hamda mavjud to‘quv dastgohlari imkoniyatlaridan foydalanish evaziga, 10 ta dastgoxda 1 mln. m^2 to‘qimadan yillik iqtisodiy samaradorlik 58 mln so‘mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.T.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ХАМРАЕВА СЕВАРАХОН БАХРОМ КИЗИ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ
ТКАНЕЙ СЛОЖНЫХ СТРУКТУР**

**05.06.02 -«Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья»
(технические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2024.3.PhD/T4922.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен в веб-сайте Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (www.titli.uz) и Информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Рахимходжаев Сайдварис Сайдгазиевич
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Нигматова Фатима Усмановна**

доктор технических наук, профессор

Даминов Асрор Махмюсупович

PhD, доцент

Ведущая организация:

**Наманганский государственный технический
университет**

Защита диссертации состоится 7 мая 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности по адресу: 100100., г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, 222-аудитория, тел. (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс 253-36-17, e-mail: pochta@ttesi.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (регистрированный номер 234). (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон – 5, тел. (+99871) 253-06-06, 253-08-08).

Автореферат диссертации разослан 21 апреля 2025 года.
(реестр протокола рассылки №234 от 21 апреля 2025 года).

Х.Х.Камилова

Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

А.З.Маматов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш.Хакимов

Председатель Научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире возрастает потребность в текстильной продукции со специальными функциями за счет использования новых технологий. Для этого необходима реализация «глобальных проектов, таких как «Зеленый текстиль», в частности, производство экологически чистых тканей»¹ и их реализация на практике. Ожидается, что международный рынок текстиля, включая спрос на инновационные и экологичные ткани, вырастет на 4–6% в 2024–2030 годах. В связи с этим важно производить функциональный текстиль, обеспечивать комфорт и безопасность жизнедеятельности человека, а также создавать продукцию, наносящую минимальный вред окружающей среде.

Во всем мире ведутся научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы по созданию новых научно-технических решений ресурсосберегающих технологий и современного текстильного оборудования для разработки специальных функциональных тканей. Учитывая значительный акцент на текстильных инновациях в таких странах, как Япония, Германия, США и Южная Корея, ожидается, что мировой объем текстильной промышленности вырастет на 20–25% в период с 2024 по 2030 год. В этой связи научные центры и университеты уделяют особое внимание разработке технологий в текстильной отрасли, включая «умные ткани», гибридные ткани и биоактивные ткани, а также созданию ресурсосберегающих технологий и обоснованию новых параметров технологических процессов и режимов работы оборудования.

В нашей республике развитие текстильной промышленности считается одним из приоритетных направлений экономики государства. Страна имеет собственную богатую сырьевую базу в этой области, а именно хлопковое сырье. В целях эффективного использования этого ресурса принимаются самые комплексные меры по внедрению передовых технологий, производству высококачественной потребительской текстильной продукции, расширению объемов экспорта и достигаются определенные результаты. В новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы поставлены важные задачи, среди которых «...удвоение производства конкурентоспособной продукции за счет модернизации текстильной промышленности, расширение производства экологически чистой продукции...». Для достижения этих целей важно увеличить объем переработки местного природного композиционного сырья на 200 тыс. тонн и производить ткани, отвечающие повседневным потребностям потребителей, а также функциональным требованиям в медицинской, технической и военной сферах.

¹Постановление от 1 мая 2024 г. № ПФ-71 «О мерах по выводу на новый этап развития текстильной и швейно-трикотажной промышленности»

Указ Президента Республики Узбекистан №ПФ-71 от 1 мая 2024 года «О мерах по развитию текстильной и швейно-трикотажной промышленности

